

---

## Islomjon Oripjonov Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi deputati etib ro'yxatga olindi

Joriy yil 24 iyul kuni Farg'ona viloyatida bo'shab qolgan o'rinlarga Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari saylovi bo'lib o'tdi.

Jumladan, 43- Bo'ston saylov okrugida o'tkazilgan saylovlarda saylovchilar o'zlari tanlagan munosib nomzodlar uchun ovoz berdilar.

Bo'shab qolgan o'ringa saylangan deputatlarni ro'yxatga olish to'g'risida viloyat saylov komissiyasi raisi Ilhom Mamajonovning qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, Rishton tumani «Chinor plyus» xususiy korxonasi rahbari Islomjon Inomjonovich Oripjonov Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi deputati etib saylangani ma'lum qilindi.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2022-08-03 16:59:06